ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 1

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 29.01.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 29.01.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www. philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 29.01.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

SOBIROV ABDULHAY SHUKUROVICH
Globallashuv jarayonlarida o‘zbek tilining tutgan o‘rni 7

FAYZIYEVA XADICHA CHORUYEVNA
Boysun-Sho‘rchi o‘zbek shevalarida
qon-qarindoshlikni bildiruvchi atamalar 11

ШУКУРОВ АБДУЛАХАД АХМАДОВИЧ
Поэтик матнда форс-тожикча
ўзлашмаларнинг қўлланилиши..... 15

SIDDIQOV JAHONGIR NOSURULLOYEVICH
Ichki imkoniyat asosida yasalgan
ergonimlarning lingvistik tadqiqi..... 18

HAQBERDIYEVA SAGINA SHOMUROT QIZI
“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da berilgan
dizayn terminlari haqida mulohazalar..... 22

XAYDAROVA DILNOZA
Milliy qandolatchilik terminologiyasiga doir..... 25

BOYNAZAROV ISLOM
Development of some philosophical
terminology in uzbek and english languages..... 28

МУНДАРИЖА

ADABIYOTSHUNOSLIK

КУРБОНОВ АБДУМАЛИК
Навоий ижоди бўйича илмий қарашлар
(Айшеҳан Дениз Абикнинг тадқиқоти мисолида)..... 32

DJURABAYEVA ZAMIRA AXMEDOVNA
Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va
faoliyati – ibrat maktabi 35

NIGORA ESANOVNA ERKINOVA
Eshqobil Shukur she’rlarida badiiy san’atlar va
ularda leksik birliklarning qo‘llanish xususiyatlari..... 38

PROFESSOR JABBOR OMONTURDIYEV..... 42

Termiz davlat universitetining 70 yillik yubileyiga



PROFESSOR JABBOR OMONTURDIYEV (1932-2019)

Tabiatning beomon issiq-sovuqlariga, shafqatsiz dovullariga tob bergan nihollar o‘sishda davom etadi, daraxt bo‘lib meva beradi, kuchli oqimga bardosh bergan toshlar daryoda qoladi, hayot mashaqqatlariga chidagan kishilar o‘z maqsadlariga erishadilar. Aytish mumkinki, professor Jabbor Omonturdiyev ham ana shunday qiyinchiliklarni yengib, ma'lum darajada maqsadiga yetgan kishilardandir.

Jabbor Omonturdiyev 1932 yil 26 oktyabrda Surxondaryo viloyati Boysun tumanining tog‘li Machay qishlog‘ida dehqon-kosib oilasida tavallud topgan. 8 yillik maktabni qishlog‘ida, 10 yillik maktabni tuman markazida a’lo baholarda tugatgan (1953 yilda).

Jabbor Omonturdiyev o‘rta maktabni bitirgunga qadar bir-biridan farq qiluvchi ikki yo‘nalishda: diniy va dunyoviy fanlar asosida ta'lim olgan, dastavval diniy aqidalar ta’sirida bo‘lgan. Unda “Haftyak”, “Qur'oni Karim”, “Chorkitob”, “Farzayn”, “Saloti mas'ud”, “Muxtasar”, “Maslak” kabi diniy kitoblar o‘qitilgan. Ikkinchi tomondan esa yosh Jabborni maktabda yangicha ta'lim – dunyoviy ilmlar, xususan, tarix, til-adabiyot fanlari maftun etgan. Buning ustiga uning “Mashrab”, “Zaynilarab”, “Yusuf va Zulayho”, “Bobo Ravshan”, “Haft g‘azo”, “Huvaydo”, “So‘fi Allohyor”, “Yusuf va Ahmad”; “Ibrohim Adham”, “Hikmat” (Ahmad Yassaviy), “Hazor savol”, “Qissasul Anbiyo” kabi badiiy asarlarni mustaqil o‘rganishi va izdihomlarda keksalarga, hamqishloqlariga o‘qib berishi va ahli davradan olgan baho – adabiyotga, she'riyatga bo‘lgan mehrini tobora yuksaltiradi. Lekin qiyinchiliklar hali oldinda edi... 10-sinfni bitirgandan so‘ng, Jabbor Omonturdiyev qarshisida ikki yo‘l – diniy va dunyoviy ilmlar yo‘li turardi. Dindor yigit uchun bu yo‘llardan birini tanlash oson kechmadi. Birovlar: “Mana, masjid – mullachilik qilaver”, der, yana birovlar: “Institutga borgin yoki SAGUga (hozirgi O‘zMU) kirgin”, – der, ota-ona esa: “Har ikki ilmni ham qo‘ldan berma, yangi ilm ilmi hikmat”, deyishdilar. Lekin gap shundaki, Jabbor Omonturdiyev o‘sha vaqtda diniy ilm bilan shug‘ullanishning nechog‘liq qaltis ekanligini boshidan o‘tkazgan, maktabda namoz o‘qigani, qiroatlar qilgani uchun ta’qiblarga uchragan. U eski kitoblarni yashirib o‘qigan, uylardagi eski kitoblarni aksar hamqishloqlari, jumladan, otasi ham tog‘ g‘orlariga olib borib yashirganliklarini ko‘rgan; beliboylilik ustozi mashhur mulla Qosimga nisbatan qilingan tuhmatu bo‘htonlardan qattiq o‘ksingan (Rahmatli bobom suhbatlarida mulla Qosimni aksilislomiy idoralar “ayblovi”ga binoan sud qilishadi. Bobom sudda ishtirok etganlar; o‘shanda sud hay'yati mulla Qosimga yuzlanib: “Yana namoz o‘qiysizmi?” – qabilidagi o‘lim-qolim masalasidagi so‘nggi savoliga: “Ha, o‘qiyberaman!” – deya adl javob bergani, alaloqibat, u kishining keyingi taqdiri ham, ta’bir joiz bo‘lsa, inkvizitsion tuzum girdobida chirkis aylangani haqida ahyon-ahyonda so‘zlab berardilar; bobom tilidan yangragan yana bir xotira: Usta Omonturdi bobomiz yetti yashar o‘g‘lini yetaklab, mulla Qosimning huzuriga eltib, u kishiga yuzlanadilar: “Bu ulimiz burungilardan she’r aytadi, dostonlardan o‘qiydi, picha Qur’ondan ham qiroat qiladi, shuni bir eshitib ko‘rsangiz, taqsir”. Mulla Qosim: “Ma'qul, o‘qisin!” – deya izn beradi. Bobom navqiron, shirali ovozda, o‘ziga xos ohangda qiroat qiladi. So‘ngra mulla Qosim: “G‘animatgina ekan!” – deya baho bergan ekan. O‘shanda usta Omonturdi bobomizning ko‘zlaridan yosh chiqib ketgan emish. Ko‘pchilik biladi, chindan ham rahmatli bobomning

qiroatlari nihoyatda ta'sirchan, inson qalbini junbushga keltiradigan darajada go‘zal va yuqumli edi. Biz, bobom kabi qiroat qiluvchini hanuz uchratganimiz yo‘q. – *Alibek Omonturdyiev*), bevosita o‘zi ham ma’lum ma’noda jabr ko‘rgani, bir necha bor so‘roq bergani, “xat”ga oligani, natijada dili vayron bo‘lgani bor gap.

Mazkur tazyiqlar tufayli Jabbor Omonturdiyev institutga ham borolmaydi, qishlog‘idagi maktabda ham joylasha olmaydi. So‘ngra Sariosiyo tumaniga borib, M.I.Kalinin nomidagi 22-sonli maktabda bosh pionervojatiy bo‘lib ishlaydi. 1953 yil – Jabbor Omonturdiyev hayotida burilish – oliy o‘quv yurtiga – til-adabiyot fakultetiga kirish g‘oyasining g‘alaba qilish yili bo‘ldi. Shu orzu uni Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining til va adabiyot fakultetiga boshladi. Jabbor Omonturdiyev besh yillik mashaqqatli mutolaadan keyin (Bobom xotiralariga ko‘ra, institut kutubxonasi roppa-rosa o‘tar kechaga qadar ishlar, odatda yolg‘iz bobom muk tushib, kitob o‘qir, bir o‘ris kutubxonachi har gal tabassum bilan “bugunga yetar, endi” qabilida bobomning nigohini kitobdan uzar ekan. – *Alibek Omonturdiyev*) – 1959 yilda institutni imtiyozli diplom bilan bitirdi.

Ha, “Qur'on”ni yopib turishga majbur bo‘lib, institutga borgan bir yigitga imtiyozli diplom uyqusiz tunlar evaziga beriladi, albatta. Talaba Omonturdiyev institutda Maqsud Shayxzoda, A.G‘.G‘ulomov, M.A.Asqarova, S.Usmonov, N.M.Mallaev, V.Zohidov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov kabi zamonasining buyuk allomalaridan ma'ruzalar tingladi, konspektlar qildi, darslarni yod oldi.

Jabbor Omonturdiyev institutga qolib ishlashga taklif filinishiga qaramay, tashabbuskor mutaxassis sifatida qo‘riq-bo‘z rayon – Sherobod dashtiga (Hozirgi Muzrabot tumani) kelib ikki yil (1959-1961) til-adabiyot fanidan o‘qituvchilik qildi. Bu davrda muallim bir tomondan, hukumatning “Qo‘riq bo‘z yerlarni o‘zlashtirish” haqidagi qarorlarini bajarishda faol qatnashgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, xalq maorifi bobida ziyo tarqatdi. Pedagogik ish bilan shug‘ullanish barobarida ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar yozib, gazeta-jurnallarda e’lon qilib turdi va ilmiy ish qilish orzusi bilan yashadi. Ayni ishtiyoq uni yana Toshkent davlat pedagogika instituti qoshidagi aspiranturaga yetakladi. Tanlovdan muvaffaqiyatli o‘tadi. J.Omonturdiyev aspirantlik davrida 8 ta ilmiy maqola e’lon qiladi. 1965 yilda professor Said Usmonov rahbarligida “Hozirgi zamon o‘zbek tilidagi sodda gaplarda kesimning strukturasi” degan mavzusida dissertatsiyasini yoqlab, filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini oladi.

Jabbor Omonturdiyev 1964 yilda O‘zSSR Fanlar Akademiyasining arab yozuvidagi eski qo‘lyozmalarni o‘rganish sektoriga ishga qabul qilinadi. Fanlar Akademiyasidagi ilmiy muhit Jabbor Omonturdiyevning hayotida yangi sahifa ochdi. U fanimiz arboblari ta’sirida bo‘ldi. Ularning davralarida qatnashdi, suhbatlarini tingladi, ilmiy qarashlarini tahlil qildi. Hodi Zarif, Porsoxon Shamsiev, G‘ani Abdurahmonov, Izzat Sultonov, Solih Mutallibov, Chustiy (Nabixon Xo‘jaev – *A.O.*), Anisiy, Habibiy Fuzoilov kabi o‘zbek, fors, arabshunos olimlardan bilmaganlarini tortinmay so‘radi, o‘rgandi, maslahat oldi. To‘rt yil davomida yirik adabiyotshunos olim Hamid Sulaymonga shogird tushdi, Muovin bo‘lib “Manbashunoslik” sektorini boshqardi. Arab yozuvidagi qo‘lyozmalarni o‘sha davr rus grafikasiga aylantirishda (transliteratsiya qilishda) faol qatnashdi va “Adabiy meros” nomli ko‘p tomli kitoblarni tayyorlash hamda nashr etishda ishtirok etdi. Alisher Navoiyning 15 tomligini, “Devoni foniy”ni qayta nashrga tayyorlashda xizmat qildi. Shu yillarda Jabbor Omonturdiyev matnshunos (tekstolog) olim sifatida e'tirof etildi.

Jabbor Omonturdiyev 1967 yilda O‘zSSR Fanlar Akademiyasidan Termiz davlat pedagogika institutga (hozirgi Termiz davlat universiteti) – kafedra mudiri lavozimiga taklif qilindi. U shu kafedrada o‘n sakkiz yil mudir lavozimida ishladi. Jabbor Omonturdiyev institutda o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasining asoschisi sifatida e’tirof etiladi. Chunki ushbu kafedra J.Omonturdiyev rahbarligida tashkil etilgan. U birinchi bo‘lib, kafedra ilmiy-metodik ishlarining ichki va tashqi mundarijasini ishlab chiqqan, kadrlar tayyorlagan, o‘ndan ortiq fan nomzodlari, 6 nafar dotsent shu kafedrada tayyorlangan. Keyinchalik baayni kafedra negizida ikkita kafedra (o‘zbek adabiyoti va o‘zbek tili va adabiyoti metodikasi) ajralib chiqdiki, bu oliy ta'lim muassasasining yanada shakllanganligidan, tarmoqlanganligidan dalolat beradi. J.Omonturdiyev bir-biri bilan bog‘liq to‘rt yo‘nalishda faoliyat ko‘rsatdi. Bular: Ma’ruza o‘qish, kadr tayyorlash, ilmiy ish qilish, jamoat topshiriqlarini bajarish. U Termiz pedinstitutining o‘zida qariyb ellik yil uzluksiz ravishda mudarrislik qildi. Ko‘p yillik ilmiy-pedagogik ishlarining xulosasi sifatida 300 dan ortiq ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar, darslik – qo‘llanmalar yozdi. Bular respublika jurnal, gazetalarida, ilmiy to‘plamlarda chop etildi. Masalan, olimning birgina Alisher Navoiy ijodiga bag‘ishlangan yigirmadan ortiq maqolasi matbuotda e'lon qilingan. 4 ta darslik, o‘quv qo‘llanma va monografiya nashr ettirgan. Uning til va adabiyot muammolari, tarix, odob-axloq, madaniyat, o‘tmishni o‘rganish kabi dolzarb masalalarga bag‘ishlangan qator maqolalari keng omma e'tiboriga havola etilgan. Jabbor Omonturdiyevning ko‘p yillik xizmatlari hukumat tomonidan taqdirlanib, “Hurmat belgisi” ordeniga munosib ko‘rilgan, “O‘zSSR Xalq maorifi a’lochisi” deya e’tirof etilgan.

Jabbor Omonturdiyevning o‘qituvchilik faoliyatidan shogirdlari hamisha mamnun bo‘lgan. U o‘qituvchilik baxtini faqat auditoriyadan, sinfdan qidirgan, topgan. “Yomon dars”ni ustozlar yoki rahbarlar tanbeh berib, bir-ikki marta kechirishlari mumkin, ammo men, – degan edi Jabbor Omonturdiyev – faqat talabalardan “qo‘rqaman”. Chunki u tanbeh ham bermaydi, kechirmaydi ham”.

Darhaqiqat, uning auditoriyadagina emas, viloyat maktablarida, malaka oshirish institutida o‘qimtishning yangi metodlari, jumladan, uzluksiz ma'ruza, ma'ruza-suhbat, muammoli dars namunalarini joriy etishda katta xizmatlari bor.

Shuni aytish kerakki, Surxondaryodagina emas, respublikamizda filologiya fanini rivojlantirishda, filologik kadrlar tayyorlashda Jabbor Omonturdiyevning munosib hissasi bor.

Bir qator dolzarb ilmiy maqolalari uchun Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan 1972 yilda Jabbor Omonturdiyevga dotsentlik unvoni berildi. G‘.Abdurahmonov, A.Sulaymonov, X.Xoliyorovlar bilan hamkorlikda yozilgan darsliklari ko‘p yillar universitet va institut talabalarining ardoqli kitoblari sirasida bo‘lgan. Xususan, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (1979), “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida gap bo‘laklari va ularning tipologiyasi” (1988) nomli kitoblari olimlar tomonidan bir qator ilmiy muammolar yechib berilgan asar sifatida baholandi.

Jabbor Omonturdiyevning ko‘p yillik ilmiy, ijodiy faoliyati u faoliyat yuritgan institut nazaridan chetda qolmadi: rahbariyat uning nomzodini professorlik unvoniga tavsiya qilgan. Shundan so‘ng, OAKning talabiga binoan, J.Omonturdiyev o‘z ilmiy ishlari yakunini Toshken davlat universitetining Ilmiy Kengashida muvaffaqiyatli himoya qildi. Universitet olimlari: prof. I.Qo‘chqortoev, prof. A.Aliev, prof. K.Nazarov, prof. O.Sharafiddinov va dots. Yo.G‘ulomovlar J.Omonturdiyev ijodiga, pedagogik faoliyatiga yuqori baho berdilar va malaka oshirish kurslariga kelib ma’ruza o‘qish haqida qaror qabul qilganlar. Ko‘p o‘tmay, 1990 yil 28 iyunda Xalq ta'limi davlat komiteti dotsent J.Omonturdiyevga professorlik ilmiy unvonini bergan.

Jabbor Omonturdiyev ilmiy izlanishlardan ijoddan zinhor chalg‘igani yo‘q. Aksincha, umr bo‘yi o‘zining fayzli kutubxonasida mutolaani, yozishni kanda qilmadi. Ana shunday zahmatlar natijasida turli yillarda yangi asarlari dunyo yuzini ko‘rdi. Xususan, “So‘z qo‘llash san'ati” (hammual., 1994), “Al-Hakim at-Termiziy ta'limoti” (2000), “Xotam ul-avliyo” (2002), “Ma’rifatnoma” (2013), “Ma'rifiy-irfoniy istilohlarning izohli lug‘ati” (hammual., 2014), “Olimlar – olam ko‘rki” (hammual., 2018) kabi qator asarlari, ayniqsa, kitobxonlar qalbidan munosib o‘rin oldi.

Professor Jabbor Omonturdiyev turli murakkab vaziyatlar, muayyan to‘siqlar, muqarrar chohu chillar tufayli doktorlik dissertatsiyasini (garchi ilmiy ish tayyor esa-da) ongli ravishda himoya himoya qilmagan. Ammo bu orzu mohiyatan ushaldi. Uning o‘g‘li, izdoshi tilshunos olim Anvar Omonturdiyev 2009 yilda filologiya fanlari doktori ilmiy darjasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Bilgichlar omadi gap professor Jabbor Omonturdiyevni “Agar poytaxtda qolganida edi, aniq akademik bo‘lardi”, deb yodga olishadi. Gap ilmiy darjadayu unvonda ham emas, aslida. Gap mohiyatda!

Shuni ta’kidlash o‘rinliki, professor Jabbor Omonturdiyevning hayot yo‘li, ilmga intilishi – ortida qolgan ko‘plab machaylik hamqishloq ukalarini ilhomlantirdi: Jabbor Omonturdiyev qanchalik og‘ir shart-sharoitlarda bo‘lmasin, ilmga tashna inson, tog‘u toshlar, qo‘y-echkilar, o‘roqu galagovlar ichida turib ham, orzusini ro‘yobga chiqarish, markazga intilib, o‘qib olim bo‘lishi mumkinligini amalda isbotlab berdi!

Machay qishlog‘idan chiqqan ilk yirik olimlardan biri sifatida machayliklar zehniyatida, fitratida ilm va olimlikka bo‘lgan umumiste’dodni muvofiqlashtirishga hissa qo‘shdi. Bugungi kunda birgina Machay qishlog‘idan yetishib chiqqan o‘nlab, yuzlab olimlar turli fanlar bo‘yicha tadqiqotlar olib borib, yuksak ilmiy daraja va unvonlar sohibi, ilm-fan yo‘lida zahmat chekib kelayotgan kamtarin ustoz-murabbiylar sifatida el-yurt ichida hurmat qozonmoqdalar.

Professor Jabbor Omonturdiyev halol va barakali umr kechirdi. Uning surati-yu siyrati, zohiri-yu botini “O‘qituvchi, ustoz, qanday bo‘lishi kerak”, degan savolga mufassal javob edi. Professor Jabbor Omonturdiyev 2019 yil 29 oktyabr kuni Termiz shahrida 87 yoshda vafot etdi. U bugun jisman oramizda bo‘lmasa-da, uning tabarruk nomi o‘zbek tilshunosligi fani fidoyilari, vohamiz ziyolilari, olila a'zolari, izdoshlari va J.Omonturdiyevdan saboq olgan o‘n minglab talabalar yodidan o‘chmaydi, InshaAlloh.